

**O‘ZBEK TILIDA TIL O‘RGANISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN  
FOYDALANISH JARAYONIDA XATOLIKLARNING LINGVISTIK  
SABABLARI**

*Andijon davlat chet tillari instituti  
Roman-german va Slavyan tillari fakulteti  
Kompyuter lingvistikasi 25-01 guruh talabasi:  
Sotvoldiyeva Fotima Azizbek qizi  
Ilmiy maslahatchi: Xomidova M.O.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek tilini o'rganishda sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida yuzaga kelayotgan lingvistik xatoliklar tahlil qilinadi. Tadqiqotda grammatik, semantik va pragmatik xatoliklarning asosiy sabablari yoritilib, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri ko'rsatib beriladi. Xususan, SI tizimlarining o'zbek tili agglutinatив tabiatiga moslasha olmasligi va uslubiy g'alizliklar tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** sun’iy intellekt, o‘zbek tili, lingvistik xatoliklar, agglutinatив tillar, kompyuter lingvistikasi, semantik tahlil, pragmatik xatoliklar, katta til modellari (KTM).

**Abstract:** This article analyzes linguistic errors arising from the use of artificial intelligence in the process of learning the Uzbek language. The study highlights the main causes of grammatical, semantic, and pragmatic errors and demonstrates their impact on the educational process. In particular, it examines the failure of AI systems to adapt to the agglutinative nature of the Uzbek language and the resulting stylistic inaccuracies.

**Keywords:** *artificial intelligence, Uzbek language, linguistic errors, agglutinative languages, computational linguistics, semantic analysis, pragmatic errors, large language models (LLM).*

**Аннотация:** В данной статье анализируются лингвистические ошибки, возникающие в процессе использования искусственного интеллекта при изучении узбекского языка. В исследовании освещаются основные причины грамматических, семантических и прагматических ошибок, а также показано их влияние на учебный процесс. В частности, анализируется неспособность систем ИИ адаптироваться к агглютинативной природе узбекского языка и возникающие стилистические погрешности.

**Ключевые слова:** *искусственный интеллект, узбекский язык, лингвистические ошибки, агглютинативные языки, компьютерная лингвистика, семантический анализ, прагматические ошибки, большие языковые модели (LLM).*

**Kirish.** So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) asosida yaratilgan platformalar — chatbotlar, avtomatik tarjimonlar, matn tahrirlovchi dasturlar va virtual repetitorlar til o'rganish jarayonida keng qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarga tezkor, qulay va individual yondashuv imkonini bersa-da, ularning faoliyatida muayyan lingvistik xatoliklar kuzatiladi. Ayniqsa, o'zbek tilini o'rganish jarayonida SI tomonidan taklif etilayotgan ayrim grammatik, semantik va pragmatik jihatdan noto'g'ri birliklar ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur holat sun'iy intellekt xatolarini texnik nuqtayi nazardan emas, balki tilshunoslik (lingvistik) jihatdan tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bois mazkur mavzu amaliy lingvistika doirasida dolzarb va ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Markowitz, Hancock va Bailenson 2024-yilgi ishlarida esa AI tomonidan yaratilgan va inson tomonidan yozilgan matnlar o'rtasidagi farqlarni o'rganishgan. Ularning tadqiqotlari sun'iy intellektning ma'lumotlarni yaratish jarayonida insoniylikdan mahrum ekanligini va bu matnlar til tuzilmasi jihatidan farq qilishi mumkinligini ko'rsatadi<sup>1</sup>.

Ko'p afzalliklarga qaramay, o'zbek tilni o'rganishda sun'iy intellektni qo'llash muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Bundan tashqari, barcha talabalar yangi texnologiyalarga osongina moslasha olmaydilar, bu esa o'quv jarayonida qo'shimcha to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Tadqiqot davomida sun'iy intellekt va katta til modellari (KTM) tomonidan yaratilgan o'zbek va ingliz tilidagi matnlarning grammatik va semantik tahlili amalga oshirildi. KTM'lar orqali ishlab chiqarilgan matnlar inson tomonidan yozilgan matnlarga nisbatan grammatik jihatdan murakkabroq, lekin semantik jihatdan noaniqroq ekanligi kuzatildi<sup>2</sup>.

Inson tomonidan yozilgan matn: Bugun men uyga boraman. Bu matn oddiy, kundalik foydalaniladigan gaplardan iborat bo'lib, u aniq va tushunarli ma'lumotni ifodalaydi. Grammatik tuzilish ham sodda va tabiiy bo'lib, o'quvchiga hech qanday murakkablik tug'dirmaydi.

Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matn: Hozirgi vaqta mening uyga borish niyatim ma'lum bo'ldi. Bu fikrdan shuni xulosa qilish mumkinki, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlar grammatik jihatdan murakkabroq bo'lsa-da, inson tomonidan yozilgan oddiy matnlar mazmunan aniqroq va tushunarliroq bo'ladi.

<sup>1</sup> Markowitz, D. M., Hancock, J. T., & Bailenson, J. N. (2024). Linguistic markers of inherently false AI communication and intentionally false human communication: Evidence from hotel reviews. *Journal of Language and Social Psychology*, 43(1), 63-82.

<sup>2</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tilini-chuqur-o-rganishda-sun-iy-intellektdan-foydalanish-metodikasi>

Grammatik xatoliklar ko'pincha so'z tartibi, kelishik qo'shimchalari va fe'l zamonlarining noto'g'ri qo'llanishida namoyon bo'ladi <sup>3</sup>. Masalan, sun'iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari ba'zan o'zbek tilining agglutinativ xususiyatlarini yetarlicha inobatga olmaydi. "Men kitobni o'qituvchiga berdim" jumlasini so'z tartibi noto'g'ri joylashtirilsa, "Men o'qituvchini kitobga berdim" kabi mantiqan xato shaklga aylanadi. Bu holatda kelishik qo'shimchalari o'z vazifasini yetarlicha bajarmaydi va jumlaning asl mazmuni buziladi. Natijada gap tuzilishida mantiqiy va uslubiy kamchiliklar yuzaga keladi.

Semantik xatoliklar esa so'z ma'nosining noto'g'ri talqin qilinishi bilan bog'liq bo'lib, bu holat ko'p ma'noli so'zlar va iboralarni tarjima qilishda yaqqol ko'zga tashlanadi <sup>4</sup>. Masalan, o'zbek tilidagi "bosh" so'zi ko'p ma'nolidir: u "insonning bosh qismi", "rahbar", yoki "asosiy" ma'nolarida qo'llanishi mumkin. Agar sun'iy intellekt "Maktabning bosh o'qituvchisi" jumlasini kontekstdan uzib tarjima qilsa, uni "maktabning boshi bo'lgan o'qituvchi" ma'nosida noto'g'ri talqin qilishi mumkin. Natijada gapning asl mazmuni buziladi. Shu sababli, sun'iy intellektdan ta'lim jarayonida foydalanishda lingvistik omillarni chuqur hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pragmatik xatoliklar esa nutq vaziyatiga mos kelmaydigan birliklarning tanlanishida namoyon bo'ladi <sup>4</sup>. Masalan, rasmiy va norasmiy uslub farqlari sun'iy intellekt tomonidan har doim ham to'g'ri ajratib berilmaydi. Bu esa matnning uslubiy jihatdan nomuvofiq bo'lishiga sabab bo'ladi.

Kompyuter lingvistikasi – informatsion texnologiyalar sohasi bilan chambarchas bog'liq yangi yo'nalish hisoblanadi. Keyingi yillarda yaratilgan dasturlar – qidiruv mashinasi, dialog tizimi, axborot boshqaruvini avtomatlashtirish, matnlarni avtomatik tahrirlashni takomillashtirish til, til tizimi imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalanishni talab qiladi <sup>5</sup>.

O'zbek tili jahon tillarining tipologik tasnifiga ko'ra agglutinativ (lotincha agglutinatio — yopishish) tillar guruhiga kiradi <sup>6</sup>. Bu tizimda so'z o'zagiga bir nechta lug'aviy va sintaktik ma'no anglatuvchi qo'shimchalar qat'iy tartibda ketma-ket qo'shiladi .

Xulosa qilib shuni aytamanki, o'zbek tilini o'rganish va o'rgatishda sun'iy intellekt (SI) imkoniyatlaridan foydalanish zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylandi. Biroq, olib borilgan lingvistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, SI tizimlari o'zbek

<sup>3</sup> Rahimov, A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. — Toshkent, 2020.

<sup>4</sup> Jurayev, B. Semantika va pragmatika masalalari. — Toshkent: Akademiya, 2019.

<sup>5</sup> Xolmanova, Z. Kompyuter lingvistikasi.- Toshkent – 2019.

<sup>6</sup> Wayer, J. Language Typology and Morphology. — New York: Routledge, 2018.

tilining o'ziga xos agglutinatib tabiatini va kontekstual nozikliklarini to'liq qamrab olishda muayyan kamchiliklarga ega.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Grammatik jihatdan: SI tomonidan yaratilgan matnlar inson nutqiga nisbatan murakkabroq bo'lsa-da, ularda so'z tartibi va kelishik qo'shimchalarining mantiqsiz qo'llanilishi holatlari ko'p uchraydi. Xususan, subyekt va obyekt munosabatlarining almashib qolishi jumlaning tub ma'nosini buzib ko'rsatadi.

Semantik va pragmatik jihatdan: Ko'p ma'noli so'zlarni (polisemantik birliklar) kontekstdan uzilgan holda tarjima qilish hamda nutq vaziyatiga (rasmii/norasmiy) mos kelmaydigan uslubiy tanlovlar SI matnlarining "insoniylikdan mahrum" ekanligini tasdiqlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Markowitz, D. M., Hancock, J. T., & Bailenson, J. N. (2024). Linguistic markers of inherently false AI communication and intentionally false human communication: Evidence from hotel reviews. *Journal of Language and Social Psychology*, 43(1), 63-82.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tilini-chuqur-o-rganishda-sun-iy-intellektdan-foydalanish-metodikasi>
3. Rahimov, A. *Kompyuter lingvistikasi asoslari*. — Toshkent, 2020.
4. Jurayev, B. *Semantika va pragmatika masalalari*. — Toshkent: Akademnashr, 2019.
5. Xolmanova, Z. *Kompyuter lingvistikasi*.- Toshkent – 2019.
6. Wayer, J. *Language Typology and Morphology*. — New York: Routledge, 2018.